

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 4

JUNE | 2023

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-4>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

PARDAYEV Umidjon

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Maqom xonandaligi" kafedrasida jo'rnavozi 2-bosqich magistranti*

Ilmiy rahbar: BERDIXANOVA Shaxida

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasida mudiri
sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8015977>

KAMON IJROCHILIGIDA USTOZLAR MAKTABI (O'ZIGA XOS IJRO USLUBIGA EGA OLLONAZAR HASANOV HAYOTI VA IJODI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Maqolada an'anaviy g'ijjak ijrochiligi Xorazm kamonchilik maktabi bu maktabning yorqin namoyondasi Ollonazar Hasanovning hayot yo'li va ijodiga bag'ishlangan. Ya'ni u kishishning faoliyati va ijro uslubi, ijro etgan asarlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm maqomi, Xorazm kamonchilik maktabi, Ollonazar Xasanov ijod yo'li, Ijro uslubi va ijro etgan asarlari.

ПАРДАЕВ Умиджон

*Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби
Кафедра "Статусное пение" Магистрант 2-го уровня*

Научный руководитель: БЕРДИХАНОВА Шахида

*Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби
Заведующий кафедрой "История и теория узбекского статуса"
доктор философии (PhD) в области искусствоведения*

ШКОЛА УЧИТЕЛЕЙ В КАМОН ПРЕДСТАВЛЕНИЕ (НА ПРИМЕРЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ОЛЛОАЗАРА ХАСАНОВА, ОБЛАДАЮЩЕГО НЕПОВТОРИМЫМ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИМ СТИЛЕМ)

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена жизни и деятельности выдающегося представителя этой школы Оллоазара Гасанова. То есть охватывает деятельность и манеру исполнения кишиша, исполняемые произведения.

Ключевые слова: Статус Хорезма, Хорезмская школа стрельбы из лука, творческий путь Аллоазара Хасанова, манера исполнения и его произведения.

PARDAEV Umijon*Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi
The Department of "status singing" is a Master's student of the 2nd level*Scientific supervisor: **BERDIKHANOVA Shahida***Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi
Head of the Department "History and Theory of Uzbek status"
Doctor of Philosophy (PhD) in the field of art history***SCHOOL OF TEACHERS IN KAMON PERFORMANCE
(ON THE EXAMPLE OF THE LIFE AND WORK OF OLLONAZAR KHASANOV,
WHO HAS A UNIQUE PERFORMING STYLE)****ANNOTATION**

The article is devoted to the life and work of Ollonazar Hasanov, an outstanding representative of this school. That is, it covers the activity and manner of performing kishish, performed works.

Key words: Status of Khorezm, Khorezm archery school, creative path of Ollonazar Hasanov, performance style and his works.

O'zbek klassik musiqasi xalqimizning boy madaniy merosi hisoblanadi. Milliy musiqamizda birgina maqom sanatining o'zi uchta vohada Buxoro, Farg'ona – Toshkent va Xorazmda o'ziga hos shakillanib rivoj topgan. Buxoro hammamizga malum bo'lgan Shashmaqom sanatidan tashqari o'zining yallalari, mavrigi kabi xalq og'zaki ijodiyoti yani folklor sanati bilan, Farg'ona – Toshkent vohalari esa maqomlaridan tashqari, o'lanlari, patnisaki katta ashulalari bilan malum va mashhurdir.

O'zbek milliy musiqa sanatida Xorazm vohasining o'rni ham o'zgachadir. Buni ayniqsa Xorazm maqomlarini tinglab his qilish mumkin. Buxoro, Farg'ona – Toshkent maqomlari kabi Xorazm maqomlari ham milliy musiqa sanatimizning ajralmas qismidir. Ularning tartibi quyidagicha: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh. Buxoro Shashamaqomi kabi Xorazm maqomlari cholg'u va ashula bo'limlariga ajratiladi. Ularning cholg'u yo'llari – mansur, ashula yo'llari esa manzum deb ataladi. Xorazm maqomlari kitobida esa cholg'u yo'llari chertim yo'li, ashula yo'llari aytim yo'li deb ataladi [1, B.264].

Xorazm maqomlari "olti yarim maqom" deb ham nomlanadi buning sababini musiqashunos olimlar oxirgi Panjgoh maqomida cholg'u bo'limidan iborat bo'lib, ashula bo'limi uchramasligi deb izohlashadi.

Xorazm vohasining sanati nafaqat maqomlari, o'zining suvoralari, dostonchilik va xalfa kabi folklor janrlari bilan, milliy musiqa sanatimizni yanada boy madaniy merosga ega ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

O'zbek mumtoz musiqasi azal – azaldan ustoz – shogird ananasi orqali bizgacha yetib kelmoqda. Milliy musiqamizda ananaviy honandalik qanchalik ahamiyatli bo'lsa cholg'u ijrochiligi ham huddi shunday ahamiyat kasb etadi. Ularni bir – birisiz yani soz bilan so'zning uyg'unlashuviz tasavvur etish mumkin emas. Ayniqsa maqom sanatimizni. Buxoro, Farg'ona – Toshkent, Xorazm maqomlarining har qaysida cholg'u yo'llari mavjud. Ularning tarkibiga kiradigan kuylar ansanbl bo'lib ham, yakkanavozlikda ham ijro etiladi. Milliy cholg'u ansanblida ijrosidagi maqom asarlari, xalq kuy qo'shiqlari va bastakorlik ijod namunalarini ijro etilishi, tinglovchiga musiqani yanayam teranroq anglashga, asarni ichiga chuqurroq kirishga undaydi [1, B.264].

Ansanblidagi har bitta cholg'u asbobini o'ziga hos o'rni bor. Ana shu cholg'u asboblaridan biri bu – g'ijjak sozidir. Milliy musiqa sanatimizda maqom cholg'u ichrochiligida g'ijjak cholg'usining o'rni beqiyos.

Bu cholgʻu asbobi arman, tojik, turkman, eron, azarbayjon uygʻur xalqlari kabi oʻzbek xalqining ham sevimli cholgʻusidir. Ansanbl ijrochiligida yetakchi sozlardan biri hisoblangan gʻijjak cholgʻusi, yakkanavozlikda ham boshqa sozlardan mungli ovozi, jarangi, diyapazoni, maqom ladlariga hos milliy oʻzbekona nim pardalarni ijro etishga qulayligi bilan farq qiladi.

Milliy musiqamizda gʻijjak cholgʻusining oʻziga xos vohalarga mansub Andijon, Buxoro va Xorazm maktablari mavjud. Har bir maktab oʻzining ijro yoʻllari, milizmatikasi bilan bir – biridan farq qiladi. Bu maktablardan biri boʻlgan Xorazm kamochilik maktabining ijro uslubi ham oʻziga xosdir. Xorazm kamonchilik maktabining oldingi namyondalari haqida malumotni manbalarda deyarli kam uchramiz. Ushbu maktab ijro uslubi shiddat, kamonni urgʻu bilan tortish, ayni paytda yumshoq toʻlqinlatish bilan ajralib turadi. “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobida musiqashunos olim boʻlgan va shu bilan birga koʻplab cholgʻularni mohir ijrochisi hisoblangan Muhammad Rasul Mirzaboshi va Qalandar Doʻnmaslarni gʻijjak cholgʻusini ham mohirona ijro etganligi haqida malumotlar mavjud [2].

Yana mazkur maktab vakillaridan Patak – gʻijjakchi (mashhur Suyav baxshi dastasida faoliyat koʻrsatgan, XIX asr), Abdulla Mijana, Matyoqub Xarratov, Ollonazar Hasanov, Hasanboy Ataevlardir. Ushbu ijrochilar talqinida Xorazm maqomlarining cholgʻu yoʻllari, surnay yoʻllari, “Aliqambar”, “Qalabandi”, “Xarrotiy”(M.Xarratov), “Gech polvon” singari kuylar mashhurdir. Ustoz – shogird ananasi orqali shakillanib kelayotgan bu maktabni koʻzga koʻringan namoyondalaridan biri mohir sozanda Ollonazar Hasanovdir [2, B.36-37].

Ollonazar Hasanov 1924 – yili Xorazm viloyati Urganch shaxrida tavallud topgan. Tugʻilib oʻsgan xonadoni viloyat teatriga yaqinligi sabab boʻlsa kerak yoshligidan musiqa sanata qiziqish uygʻongan. Dastlab 10 yoshida oʻrta maktabning badiiy havaskorlik toʻgaragida chang va dutor – tanbur cholgʻularini chalishni oʻrgagan. Cholgʻu sozlarini puxta oʻzlashtirib olgandan soʻng, 14-15 yoshidan teatr ansanbili kansert va tadbirlarida sozandalik qilib yurgan. U yerda Raxmonqul Olloberganovdan gʻijjak sozini oʻrganadi. Xorazm maqomlarini Muhammadraximxon Feruz saroyida xizmat qilgan maqomdon Matyoqub Pozachining shogirdi Razzoq ota Omonovdan oʻrganish niyatida yurgan vaqtlarida ikkinchi jahon urushi boshlanadi va u kishi ham urushga joʻnab ketadi. Urushdan qaytgach oʻzining jonajon teatr arkestri va madaniyat uyida oʻz ijodiy faoliyatini boshlaydi.

Ollonazar Xasanov oʻzining Andijon kamochilik maktabidan ilhom olganligi, Komiljon Jabborovni ustozlaridan biri deb bilishini etirof etgan. U kishi Oʻzbekiston, Qoraqalpogʻiston, Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozovga oʻz sozi bilan joʻrnavozlik qilgan. Komiljon Otaniyozov bilan koʻplab gastrol safarlarida boʻlgan. Ustoz sanatkor Komiljon Otaniyozov ijrosidagi Feruz, Xorazm Segohi kabi asarlarda tor cholgʻusi bilan birgalikdagi gʻijjak cholgʻusini bir biriga uygʻunlashib ketganligidan u kishining joʻrnavozlikda qanchalik mohir ekanligini ilgʻash mumkin. Xorazm Segohining oʻrta miyonxati va avj qismidan oldin keladigan cholgʻu jumlasida gʻijjak cholgʻusida qilgan milizmlar (ijro bezaklari) dan u kishining ijro mahoratlari musiqaviy badiiy didlarini yuksakligini anglashimiz mumkin.

Ollonazar Hasanov oʻziga xos ijro uslubiga ega kamonchi boʻlganligi uchun 1991 – yil Oʻztele-radio qoshidagi Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansanbilining badiiy rahbari Oʻzbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov taklifi bilan 10 dan ortiq ijro etgan asarlari radio magnit tasmlarga yozib olingan va oltin fondga kiritilgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki mohir sozandaning ijro uslubi qator ustoz sanʼatkorlar tomonidan etirof etilgan.

U kishining “yaxshi gʻijjakchi boʻlish uchun odamda dard boʻlishi kerak” degan gaplarini moxir sozanda Jaloliddin Matyoqubov yaxshi eslaydi. Bu jumalardan cholgʻuchida eshtish qobiliyati musiqaviy bilimdan tashqari hissiyot va holatga kirish, qisqacha qilib aytganda dard boʻlishi bilangina ijroning eshituvchiga tasir ettirish mumkinligini anglaymiz.

Ollonazar Hasanov ana shu darajaga yetgan mukammal sozandalardan biri bo‘lgan. Sozanda o‘ziga xos kamonni uzmasdan titroqli ijro uslubiga ega bo‘lgan. Huddi shunday titroqli uslubni zabardast Andijon g‘ijjak ijrochiligi maktabi namoyondasi G‘ulomjon Hojiqulovda ham uchratamiz. Biroq u kishini ijro uslubi kamonni uzib-uzib ijro etilishi bilan Ollonazar Hasanov ijro uslubidan farq qiladi.

Umuman olganda ananaviy g‘ijjak ijrochiligida bu uslub salobatligi va milliy ohangimizga xosligi bilan akademik ijrodagi “vibratsiya”dan eshtilishi va ijro etilishi bilan farq qiladi. Jaloliddin Matyoqubov ustoz Ollonazar Hasanovni g‘ijjak sozni qo‘liga olganida Xorazm maqomlarida keladigan bir necha namudlarni mashq tariqasida ijro etganliklarini ham etirof etgan. Ollonazar Hasanov maqomga hos nim pardalarni ustalik bilan aniq ijro qilgan va xorazm maqomlari shu vohaga mansub xalq kuylarini puxta o‘rgangan va musiqaviy badiiy did va bilimga ega bo‘lgan kamonchi sozandadir.

Umrini yolg‘izlikda o‘tkazgan mohir kamonchi Ollonazar Hasanov 1997 – yil hayotdan ko‘z yumgan. Shu o‘tqizgan umri davomida o‘zining betakror ijrosi bilan kamon ijrochiligida yorqin iz qoldira olgan. Ollonazar Hasanov ijrosidagi Muhammasi Ushshoq, Muhammasi Rost, Saqili Navo, Saqili Sulton, Peshravi Dugoh, Hafifi Segoh, Chorgoh kabi maqom kuylari yuksak sanat darajasidagi ilhom bilan sug‘orilgan [3, B.125].

Hozirgi kunda ustozni ijro uslubi, yo‘llarini Olanazar Ibodullaev, Ulug‘bek Quranboev, Jaloliddin Matyoqubovlar davom ettirib kelmoqda. Xorazm kamonchilik maktabi va uning namoyondalari to‘g‘risida, qolaversa Ollonazar Hasanovning ijodiy faoliyati xususida manbaalarda malumotlar yetarli emasligi tufayli atroflicha yorita olmadik.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.: Fan 1993.
2. Is’hoq Rajabov. Maqomlar. T.: San’at. 2006.
3. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. “Mumtoz so‘z” Toshkent. 2014.
4. Matniyoz Yusupov. Xorazm maqomlari VI tom. Toshkent. 1958.
5. Nabijon Qodirov. G‘ijjak ijrochiligi maktabi. Toshkent. 2011.
6. Otanazar Matyoqubov. “Maqomot”. T.: Musiqa. 2004.
7. uz.m.wikipedia.org.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz